

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KO'P ISHLATILADIGAN IBORALARNING LINGVISTIK KORPUSLARDA BERILISHI

Normamatova Shaxzoda

O'zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz) yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi eng ko'p ishlatiladigan iboralarining tuzilishi, gapda qo'llanilishi va boshqa funksiyalari korpus lingvistikasi asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Korpus lingvistikasi, frazeologik idiomalar, kollokatsiyalar, lug'aviy ma'no, majoziy ma'no.*

Zamonaviy tilshunoslikda korpus lingvistikasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. An'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, korpus lingvistikasi til birliklarini keng hajmdagi real nutq materiallari asosida tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Korpus lingvistikasi — bu tilshunoslikning til ma'lumotlarini katta hajmdagi yozma yoki og'zaki matnlardan tashkil topgan maxsus to'plam — korpuslar asosida o'rganish sohasidir. “Korpus” so'zi lotincha “corpus” so'zidan olingan bo'lib, “tan, butunlik, jamoa” degan ma'noni anglatadi [1]. Korpus lingvistikasi so'z va iboralar, ularning ishlatilishi, kontekstlari va til qoidalarini tadqiq etishga yordam beradi. Ayniqsa, ko'p ishlatiladigan iboralarni aniqlash va ularning funksional xususiyatlarini o'rganishda korpus usuli sezilarli natijalar beradi. Bu iboralar og'zaki va yozma nutqda tez-tez qo'llanadigan, ko'pincha tayyor shaklda ishlatiladigan birliklar bo'lib, ular til egalarining madaniy va kommunikativ ehtiyojlarini ifodalaydi.

Iboralar tilning boyligini, uning estetik va madaniy xususiyatlarini ko'rsatadi. Ular tilni yanada jonli, ta'sirli va ifodali qiladi. Iboralar yordamida fikrlar qisqaroq va aniqroq yetkaziladi, shuningdek, ular madaniyat va urf-odatlarining aks ettiruvchisi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi ko'plab iboralar xalqning tarixiy hayoti, an'analari, tabiati bilan chambarchas bog'liq. Ibora — bu bittadan ortiq so'zdan tashkil topgan bo'lib, o'zaro bog'langan va birgalikda ma'lum bir ma'noni ifodalaydigan til birligi hisoblanadi [2]. Ibora yakka so'zlardan farqli o'laroq, o'zining to'liq ma'nosini butun ibora orqali anglatadi. Iboralarni o'rganish tilshunoslik fanining muhim bo'limlaridan biridir. Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan frazeologik birliklar deganda semantik jihatdan bir-biriga tobe bo'lgan (ya'ni erkin bo'lmagan) nutq jarayonida gapiruvchi tomonidan erkin so'zlarni bir-biriga qo'shish yo'li bilan tuzilmaydigan, til leksikonida tayyor holda mavjud bo'lgan va jamiyat tomonidan belgilangan, barqaror ma'noga ega bo'lgan ma'lum bir leksik-grammatik tuzilma, birlik tushuniladi.

Ingliz va o'zbek tillari turli tillar oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, ular o'zaro aloqada bo'lib, ko'plab so'z va iboralarda o'zaro ta'sir yuzaga kelgan. Ko'p ishlatiladigan iboralar — frazeologik birliklar — tilning jonli va madaniy qatlamini aks ettiradi. Shuning uchun, ularni korpus lingvistikasi asosida taqqoslash til o'rganish, tarjima va lingvistik tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

Iboralarni lingvistik tahlil qilishda ularni quyidagi asosiy guruhga ajratish mumkin: frazeologik iboralar (idiomalar) va kollokatsiyalar (birga ishlatiladigan so'zlar) [3].

1. Frazeologik iboralar (idiomalar)

Frazeologik iboralar yoki idiomalar ko'pincha majoziy ma'noga ega bo'lib, ularning tarkibiy qismlari orqali to'g'ridan-to'g'ri ma'no chiqarish qiyin. Bunday iboralar ko'pincha madaniyatga xos bo'lib, kontekstda tushuniladi. Ushbu idiomalarga ikki xil tilda ham misol keltirishimiz mumkin: Ingliz tilida “break the ice” — suhbatni boshlamoq, muhitni yumshatmoq, “hit the nail on the head” — aynan to'g'ri gapni aytmoq, yoki o'zbek tilidagi “ko'zini ochmoq” — kimnidir haqiqatga ko'ndirmoq, “tilga kirib qolmoq” — gapga tez javob qaytaradigan bo'lmoq. Bu turdagi iboralar tarjimada ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri emas, balki muqobil ibora orqali ifodalanadi. Masalan, “Break the ice” iborasi o'zbekchada “muzni eritmoq” emas, balki “gap boshlab, muhitni yumshatmoq” tarzida ifodalanadi.

2. Kollokatsiyalar (birga ishlatiladigan so'zlar)

Kollokatsiyalar — bu so'zlarning doimiy birikmalarda birga ishlatilish odatidir. Ular grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, ba'zan tarjima tilida to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmaydi. Ularni o'zlashtirish uchun ko'p marta kontekstdagi ishlatilishini ko'rish zarur. “Make a decision” — qaror qabul qilmoq (not “do a decision”), “strong coffee” — quyuq qahva (kuchli qahva emas). Kollokatsiyalar tilda tabiiy ohang hosil qiladi. Masalan, ingliz tilida “do a mistake” noto'g'ri, to'g'risi “make a mistake”. O'zbek tilida esa “xato yasamoq” tarzida emas, balki “xato qilmoq” tarzida tarjima qilinadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi iboralarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida nafaqat ularning lug'aviy shakli, balki grammatik tuzilishi va semantik mazmuni ham chuqur o'rganishni talab qiladi. Har bir tilning iboraviy ifoda vositalari u tilga xos sintaktik qurilish, morfologik xususiyat va madaniy tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, strukturaviy va semantik jihatdan farqlanuvchi iboralarni tahlil qilish orqali ikki til orasidagi o'xshashlik va tafovutlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Ingliz tilidagi ko'plab iboralarni *fe'l+ot* tarzida uchratishimiz mumkin, bu iboralar harakatni bildiradi, ammo odatda bitta fe'l bilan ifodalab bo'lmaydi.

“Have a rest”-hordiq chiqarmoq, “give a speech”- nutq so'zlamok, “take a break”- dam olmoq.

Ushbu birikmalarda fe'l ot bilan birikib, bitta semantik birlikni tashkil etmoqda. O'zbek tilidagi ko'p iboralar esa *ot+fe'l* tarzida ifodalanadi. Masalan **“dunyoni boshiga ko'tarmoq”**- baqirib janjallashmoq, **“boshida yong'oq chaqmoq”**- ortiq darajada zaoblamoq va hokazo.

Ingliz va o'zbek tilidagi iboralar semantik jihatdan ham turlicha yo'sinda shakllanadi. Ular lug'aviy (literal) va majoziy (figurative) ma'no beradi, ba'zida bu ma'nolar tarjimada o'z ifodasini to'g'ridan-to'g'ri topmaydi. Ba'zi iboralar lug'aviy ma'noga ega bo'lsa-da, ko'pchiligi faqat majoziy yo'l bilan tushuniladi. Masalan, **“it's raining cats and dogs”** — yomg'ir quyib yog'ayapti (bu ibora so'zma-so'z tarjimada “mushuk va it yog'ayapti” degan g'ayritabiiy ma'no beradi.). **“A little frog in big pond (fig)”**- o'zga yoki begona davrada o'zini noqulay yoki ojiz, g'alati his qilganda qo'llaniladi, so'zma-so'z tarjimada esa- kichkina baqa katta ko'lda degan ma'no yuzaga keladi. O'zbek tilidagi misollarga to'xtaladigan bo'lsak, **“kapalagi uchib ketmoq”**- iborasi ma'nosiga kapalakning hech qanday daxli yo'q, undan **“qo'rqib ketmoq”** ma'nosi tushuniladi, yoki **“tarvuzi qo'ltig'idan tushdi”** iborasida ham, shunchaki, hafsalasi pir bo'ldi ma'nosi anglashiladi.

Bundan tashqari ko'plab tillarda mavjud bo'lganidek, o'zbek va ingliz tillarida frazeologik omonimlar, frazeologik sinonimlar va frazeologik antonimlar mavjud. Frazeologik omonimlar – bu shakl jihatdan bir xil, ammo ma'no jihatidan turlicha bo'lgan frazeologik birikmalardir [4]. Ya'ni, bitta frazeologik ibora ikki yoki undan ortiq ma'noni ifodalashi mumkin, bu holatda u frazeologik omonim hisoblanadi. Frazeologik omonimlar leksik omonimlar kabi omonimiya hodisasining frazeologik birliklardagi ko'rinishidir. Ular tilda stilistik vosita sifatida ham qo'llaniladi va ko'pincha so'z o'yini, kinoya, istehzo kabi badiiy uslublarda ishlatiladi. Bu birikmalar ko'pincha matnning konteksti orqali anglanadi. Masalan, **“javob bermoq”** iborasi ikki xil ma'noda tushuniladi:

1. Javob bermoq- savolga javob bermoq:

“Ha, mayli, qani javob ber-chi, turmushimiz to'g'risida sening qanday fikrlaring bor?” (O'zbek tilining izohli lug'ati. 215b).

2. Javob bermoq- kafilligini bo'yniga olmoq:

“G'o'za nobud bo'lsa men javob beraman, agronom javob beradi” (O'zbek tilining izohli lug'ati. 215b).

Ingliz tilidagi **“Spill the beans”**

1. Sirni aytib qo'ymoq: “She accidentally spilled the beans about the surprise”.

2. Loviyalarni to'kib yubormoq: “He spilled the beans all over the floor”.

Frazeologik sinonimlar esa tuzilish jihatdan har xil bo'lsa-da, bir xil ma'noni ifodalaydi. Masalan, **“like a bat out of hell”** va **“go like a bomb”** iboralarining ikkisi

ham “juda tez, shiddat bilan harakat qilmoq” ma’nolarini anglatadi. O’zbek tilidagi “og’zi ochilib qolmoq”, “yoqasini ushlamoq”, “hang-mang bo’lmoq” iboralarining barchasi hayratlanish, taajjublanish ma’nolarini ifodalaydi.

Antonim iboralar deganda, ma’nosi bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan frazeologik birikmalar yoki so’z birikmalari tushuniladi. Ya’ni, bu iboralar bir-birining teskari, aks, qarama-qarshi ma’nolarini ifodalaydi. Bunga misol tariqasida o’zbek tilidagi **“tishini tishiga qo’ymoq”**- biror narsaga chidash va **“tob berolmaslik”**-chiday olmaslik yoki **“labi labi tegmaslik”**- tinmay gapirish, dami chiqmaslik”- umuman gapirmaslik iboralarini aytishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, ingliz tilidagi ko’p ishlatiladigan iboralar asosan qisqa, ko’p hollarda idiomatik va metaforik ma’noga ega bo’lib, ular kommunikativ vazifada ko’proq keng tarqalgan. Ingliz tilida frazeologik birliklar kontekstga bog’liq holda ma’no o’zgarishiga uchraydi, bu esa ularni ko’p qirrali va samarali vosita sifatida ko’rsatadi.

O’zbek tilidagi iboralar esa ko’proq an’anaviy, xalq og’zaki ijodidan kelib chiqqan, ko’pincha ko’p so’zli va murakkab tuzilishga ega frazeologik birliklardir. Ular nutqni yanada boyitib, fikrni yanada aniq ifodalashda muhim rol o’ynaydi. O’zbek tilida ko’p ishlatiladigan iboralar ko’pincha zamonaviy tilga moslashtirilgan bo’lsa-da, ularning ko’pchiligi xalq estetikasi va tafakkuriga chuqur singib ketgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbek tilining izohli lug’ati. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2008.
2. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko’rki. T., 1970. 132 b.
3. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. T., 2022. 832 b.
4. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Yangi asr avlodi nashriyoti. T., 2009.
5. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. T., 2010.
6. Zaxarov V., Mengliyev B., Xamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi. Toshkent – 2021.
7. O’zbek tili frazeologik lug’ati. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2022.
8. Michael McCarthy. English collocation in use. CUP. 2017.